

**MADANIY RAMZLAR VA ULARNING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI
(ULUG'BEK HAMDAM ASARLARI MISOLIDA)**

Ro'ziboyeva Dilruxsor Nurmuhammad qizi

Andijon davlat universiteti

Lingvistika mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Telefon: +998 95 929 05 07

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ulug'bek Hamdam asarlarida uchraydigan madaniy ramzlarning badiiy matndagi funksional xususiyatlari tahlil etiladi. Adib ijodida xalqona timsollar, diniy-ma'naviy obrazlar, tarixiy va an'anaviy belgilar, shuningdek, o'zbek xalqining madaniy xotirasiga mansub ramzlar o'ziga xos poetik shakllarda ifodalanadi. Ramzlarning nafaqat semantik, balki konnotativ, estetik, ideologik va psixologik yuklamasi ham tahlil markazida turadi. Maqolada bunday ramzlarning milliy ongni shakllantirish, badiiy obrazlarni chuqurlashtirish va asar g'oyasini kuchaytirishdagi roli misollar orqali ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: madaniy ramz, milliy tafakkur, antroponim, badiiy funksiya, estetik-emotsionallik.

Madaniy ramzlar adabiy asarlarda o'quvchiga aniq bir madaniy yoki tarixiy tushuncha yetkazish, ularni xalqning ijtimoiy, ruhiy va emotsiyonal holati bilan bog'lash orqali ma'lum bir ma'noni ko'rsatish uchun ishlatiladi. Madaniy ramzlar til va madaniyat o'rtaсидаги о'заро bog'liqlikni ifodalaydi, ularni o'rganish esa tilshunoslik, adabiyotshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida katta ahamiyatga ega. Madaniy ramzlar xalqning tarixiy, ijtimoiy va madaniy merosini aks ettiradi. Ularning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

1. Identifikatsiya qilish funksiyasi: Madaniy ramzlar xalqning o'ziga xosligini ifodalaydi, milliy kimlikni shakllantiradi. Masalan, "ota" ramzi o'zbek millatida oilaning, mehr-oqibatning va hurmatning ramzi sifatida ishlatiladi.

2. Pragmatik funksiyasi: Madaniy ramzlar adabiyotda o'quvchining anglash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi, maxsus maqsadga xizmat qiladi. Ulug'bek Hamdamning asarlarida bu funksiyaning o'rnini ko'rish mumkin: unda madaniy ramzlar har bir asosiy obraz va vaziyatda aniq maqsadga xizmat qiladi, bu esa asarlarning chuqur mazmunini tashkil etadi.

3. Estetik va emotsiyonal funksiyasi: Madaniy ramzlar adabiyotda o'quvchining estetik qiziqishini uyg'otadi, uning his-tuyg'ularini shakllantiradi. O'zbek adabiyotida, masalan,

"yolg'izlik" ramzi o'zgacha bir kayfiyatni o'quvchiga yetkazadi, shuningdek, tahliliy adabiyotda ular haqidagi fikrlarni bayon etishda muhim rol o'ynaydi.

4.Kommunikatsion funksiyasi: Madaniy ramzlar jamiyat ichidagi muloqotni osonlashtiradi. Ular turli ijtimoiy guruhlarning o'zaro anglashuvini va ular orasidagi madaniy o'xshashlikni aks ettiradi.

5.Simvolik funksiyasi: Madaniy ramzlar chuqur semantik ma'nolarga ega bo'lib, turli madaniy qatlamlarda ramziy ahamiyatga ega bo'ladi. Ular ko'pincha xalqning qadriyatlari va an'analari bilan bog'liq.

Ulug'bek Hamdamning asarlari o'zbek adabiyotida yuksak o'rinni tutadi. U asarlari orqali milliy qadriyatlarni, urchodatlar va madaniy tasavvurlarni chuqur ifodalagan. Quyida madaniy ramzlarning funksiyalarini aniqlashda Ulug'bek Hamdam asarlaridan misollar keltiramiz:

1. "Ota" asarida madaniy ramzlar.

Ulug'bek Hamdamning "Ota" asarida ota ramzi markaziy o'rinni tutadi. Ota o'zbek madaniyatida nafaqat oilaning rahbari, balki xalqning jamiyatdagi ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi ramzdir. Ota – insonning tarbiya olgan, ilmli, oqil va muruvvatli bo'lishi lozimligini anglatadi. Bu ramz nafaqat o'zbek oilasidagi ota-onada o'tasidagi hurmatni, balki milliy ongning tarbiyasi va axloqiy mas'uliyatini aks ettiradi.

Misol uchun, U. Hamdamning "Ota" asarida ota obrazining shakllanishi va farzand bilan munosabatlar orqali xalqning qadriyatlari tasvirlanadi. Ota ramzi shuningdek, ahillik, mehr-oqibat va tarixiy davomiylikni anglatadi. Ota, shuningdek, ijtimoiy tuzilma va tarbiyaning asosiy ustuni sifatida tasvirlanadi.

2. "Yolg'izlik" asaridagi madaniy ramzlar.

"Yolg'izlik" asarida yolg'izlik ramzi insonning ichki dunyosini aks ettiradi. Yolg'izlik ramzi ko'p hollarda o'zbek adabiyotida insonning qalbida chuqur bo'shliq, ruhiy izardirob va hayotdagi maqsadsizlikni ifodalashda ishlataladi. Hamdam asarida yolg'izlik ramzi o'ta tashvishli, ammo shuningdek, o'zini anglash va ruhiy rivojlanishga bo'lgan zaruriyatni ifodalaydi.

O'zbek adabiyotida yolg'izlik ramzi faqat Hamdam asarida emas, balki o'zbek adabiyotining boshqa asarlarida ham uchraydi. Masalan, Cho'lponning "Tong" she'rida yolg'izlik ramzi insonning tinchlik va quvonchdan mahrum bo'lgan holatini tasvirlash uchun ishlatalgan.

3. "Sabo va Samandar" asaridagi madaniy ramzlar.

"Sabo va Samandar" asarida sevgi va sadoqat ramzlari markaziy o'rinda. Sevgi o'zbek madaniyatida yuksak qadriyat hisoblanadi, shuningdek, Samandar va Sabo o'tasidagi sadoqat ramzi xalqning ota-bobolariga bo'lgan hurmatini, va'dalarga sodiqligini aks ettiradi.

4. "Isyon va Itoat" asaridagi madaniy ramzlar.

"Isyon va Itoat" asarida isyon ramzi millatning o'z erkinligi uchun kurashini aks ettiradi. O'zbek adabiyotida isyon ramzi ko'plab asarlarda milliy ozodlik uchun kurashni anglatadi. Masalan, Hamdamning asarida isyon, xalqning kuchli ijtimoiy va axloqiy o'zgarishlarga bo'lgan ehtiyojini ifodalaydi, shuningdek, itoat ramzi esa millatning yetakchi qadriyatları – hurmat, vatanparvarlikni ko'rsatadi.

Antroponim	Ma'nosi	Badiiy vazifasi
Orif	Falsafiy ma'noda "bilimdon"	Ma'rifatparvar obraz
Salim	Sog'-omon, tinchlik	Ruhiy poklik va yaxshi niyat ramzi
Munira	Nurlangan, porloq	Ayol obrazida go'zallik va iyomon

Xulosa qilib aytganda, Ulug'bek Hamdam asarlarida madaniy ramzlar xalqning tarixiy-madaniy xotirasini, ruhiy olamini va dunyoqarashini ifodalovchi kuchli badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Bu ramzlar badiiy matnning semantik qatlamlarini kengaytiradi, o'quvchining madaniy kontekstni idrok etishiga xizmat qiladi va muallifning milliy-estetik qarashlarini olib beradi. Natijada, Ulug'bek Hamdam ijodida madaniy ramzlar faqat badiiy bezak emas, balki g'oya va mazmunni chuqurlashtiruvchi muhim funksional birlik sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Ibrohimova N. O'zbek tilining kommunikativ pragmatik xususiyatlari // Filologiya masalalari. – 2020. – №1. – B. 67–75.
2. Umid O. Ulug'bek Hamdam adabiy merosining zamonaviylik va milliylikdagi talqini // Yangi O'zbekiston. – 2020. – 15-noyabr. – B. 4.
3. G'afforov T. Pragmatik lingvistika asoslari. – Toshkent: Tafakkur, 2020.
4. Usmonov M. Adabiy til va madaniy qadriyatlar. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2011.